

**TOVARLARNI SINFLASH, TASNIFLASH VA SERTIFIKATLASHTIRISH***Hasanov Saidaxrorxon Abror o'g'li**Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali 3 kurs talabasi**[saidaxrorxonxasanov2001@gmail.com](mailto:saidaxrorxonxasanov2001@gmail.com)**+998 91-452-31-34*

Tovarlarni sinflash, tasniflash va sertifikatlashtirish hozirgi kunda hayotimizda katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Tovarlarni tasniflash yoki sinflash bizga bojxona ishlarida juda katta yordam berib kelmoqda. Bojxona hududidan import bo'lib kelayotgan tovarlarni tezroq va qulay aholiga yetib kelishi uchun uyg'unlashgan tizim bizga yordam beradi.

Uyg'unlashgan tizim haqida qisqacha ma'lumot berib o'tadigan bo'lsak bu tizim Belgiyaning Bryusel shahrida 1983-yil 14-iyunda qabul qilingan konvensiyadir. Bu konvensiya 1986 yil 24-iyunda protokol orqali kiritilgan o'zgartirishlar bilan birga 1988- yil 1 yanvarda kuchga kirgan. O'zbekiston Respublikasi 1998-yil 29-avgustda Oliy Majlisning 687/1 sonli qaroriga asosan bu konvensiyaga qo'shilgan. Bu konvensiya Respublikamiz hududida 2000-yil 1-yanvarda kuchga kirgan va hozirgi kungacha foydalanib kelmoqdamiz. Bu konvensiya 20 ta moddadan iborat. Biz iste'mol qilayotgan mahsulotlarimizning barchasi TIF TN kitobi orqali sinflanib tasniflanadi. TIF TN kitobida 97 guruh mavjud bo'lib, bu mahsulotlarni bojxona hududi balki boshqa jabhalarda ham ancha as qotadi deb hisoblaymiz. Chunki biz import bo'lib kirib kelayotgan mahsulotlarni shu TIF TN kitobga qarab ajratib olamiz va boshqa davlatlar ham shunga qarab ajratib oladilar. Masalan, TIF TN ning 1-bo'limda "Tirik hayvonlar va hayvon mahsulotlari" klassifikatlanadi. 01 guruhda esa "Tirik hayvonlar", 03 guruhda esa "Baliq va qisqichbaqasimonlar, malyuskalar va boshqa suvdagi umurtqasizlar" klassifikatsiyalanadi.

Tovarlarni sinflashda qo'llaniladigan tasniflash qoidalari oltita. Ular:

1-qoida. Tovar nomi bo'yicha tasniflanadi, yani tovarning aniq nomi berilgan bo'lsa, u nomi bo'yicha tasniflanadi, lekin keyingi qoidalar birinchi qoidani inkor etsa, bunday holda keyingi qoidalarga murojat etishimiz mumkin.

2-qoida ikkiga bo'linadi

a) Tugallanmagan, tayyor bo'lmagan tovarlar, lekin tovarning umumiy xossasini, xususiyatini namoyon qiladi, bunday xolatda tovarlar tayyor tovar sifatida tasniflaymiz;

b) Agar tovarlar bir necha materiyaldan tashkil topgan bo'lsa, ularni miqdoriga, tarkibiga, narxiga, funksiyasiga va tashqi savdodagi salohiyatiga ko'ra tasniflanadi.

3-qoida, bu qoidani ham to'rtga bo'lishimiz mumkin

3-a qoida: Tovar o'z materiallarining asosiy, aniq belgisiga binoan tasniflaymiz;  
3-b qoidada Tovar o'zini tashkil etgan material yoki komponentlarning asosiy belgilari asosida tasniflanadi;

3-c qoida: Agar Tovar bir vaqtning o'zida bir nechta vazifani bajarsa yoki tarkibidagi materiallarning miqdori 50% ni tashkil etsa, bunday xolatda TIF TN da kod raqamlarining oxirigisi, yani katta raqam asosida tasniflanadi.

3-d qoida: Ushbu qoidalar ketma ketlikda qo'llaymiz, yani avval birinchi, keyin ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi va oltinchi qoidalardan foydalanamiz.

4-qoida: Bunda o'xshash, shunga yaqin tovarlar ularning boshqa asosiy beshta ko'rsatkichlariga muvofiq tasniflanadi.

5 qoidani ikkiga bo'lib o'rganamiz

a) Tovarlar solingan, o'ralgan idishlar, g'iloflar, tovarlar bilan birga tasniflanadi.

b) Tovar o'ralgan material va idishlar qayta ishlash uchun mo'ljallangan bo'lsa, tovar bilan birga tasniflamaymiz, yani tovar alohida, idish yoki g'ilof alohida tasniflanadi.

6-qoidada tovarlarni to'liq subpozitsiyasigacha tasniflashga yordam beradi va tovar to'liq tasniflaymiz. Buning uchun tovarlar haqida to'liq malumotlar talab etiladi.

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan va import bo'lib kirib kelayotgan mahsulot (ish va xizmat)larni sifatini ta'minlash maqsadida sertifikatlashtirish lozim. Bunda sertifikatlashtirish milliy tizimi va O'zbekiston Respublikasi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan amalga oshiriladi.



Hozirgi kunda yurtimizda sertifikatlashtirish ikki xil, majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish. Bu sertifikatlashtirish yurtimizda balki xalqaro amalyotda ham mahsulotning tanlashda iste'molchilarga ko'maklashuvchi samarali usul deb hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarayotgan mahsulotni sertifikatlashni qanchalik nufuzli tashkilotlar o'tkazilishiga juda katta e'tibor berishiadi chunki, mahsulot jahon bozori balki o'zimizning bozorda ham iste'molchilar

tomonidan sotib olish ehtimoli oshadi. Keyingi vaqtlarda xalqaro iqtisodiyotda ISO 9000 turkumli, shuningdek, boshqa tizimli ISO 14000 bo'yicha va boshqa xalqaro standartlar talablariga muvofiq sifat tizimini ixtiyoriy sertifikatlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish hozirgi kunda faqatgina tashqi bozorga mahsulotlarimizni eksport qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda, ichki bozorda esa juda sust desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Biz agar ichki bozorimizni ham sertifikatlashtirilgan mahsulotlar bilan to'ldirsak balkim oziq ovqat mahsulotlaridan zaxarlanish yanada kamaygan bo'lar edi. Har kim har doim o'zi uchun balkim siz ham sifatli mahsulot xarid qilishga haqlisiz.

Majburiy sertifikatlashtirish. Bu sertifikatlashtirish turi esa hozirgi kunda faqatgina bolalar oziq-ovqat mahsulotlari, farmasevtika kabi sohalarda saqlanib qolayotganini barchamiz bilamiz. Majburiy sertifikatlashtirish O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan qaror va qonunlari, qonunchilik aktlari va me'yoriy hujjatlarning majburiy talablariga, texnik reglamentlar talablariga asosan amalga oshiriladi. Bu hujjatlarda atrof muhit va insonlar sog'lig'ini saqlash, xavfsizlikka aloqador, lekin majburiy sertifikatlashtirishning asosiy jihati shundaki xavsizlik va ekologikligi bo'lib hisoblanadi. Sertifikatlashtirishni afzalliklarini aytadigan bo'lsak bir misol tariqasida tushuntirib o'tamiz.



G'arbiy Yevropaning bir firmasi soat ishlab chiqaradigan korxonadan 2 dollardan soat sotib olardi. Bu firma sotib olgan soatlarni sifatini o'z zimmasiga olib 40 dollardan sotar edi ,vaholanki bu soatlar juda sifatli edi. Soat ishlab chiqaradigan firma mahsulotini sertifikatlashtirishdan o'tkazgandan so'ng xaridorlar asl soat egalarini qidirib kela boshlashdi bu soatlar narxi esa 100 dollarga yetib bordi. Bu korxonada esa shundan so'ng o'zini iqtisodiy tomonlarga ancha rivojlantirib oldi. Ko'rib turibmizki oddiygina qulog'imizga eshitiladigan sertifikatlashtirish so'zini afzalliklarini tushunishimiz qiyin bo'lmaydi. Agar biz yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sertifikatlashtirishdan o'tkazsak iqtisodiyotimiz ancha yuksalishiga sabab bo'lar edi. So'zimizni oxiriga shuni takidlab o'tishni lozim deb topdik "Har kim har doim eng sifatli, eng afzali va eng yaxshisiga loyiqdir, shuningdek, hatto siz ham"

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Аристов О. В. Управление качеством: учебник / О. В. Аристов. - М.: ИНФРА-М, 2006.
2. Ахмедов Б.М., Абасов А.А. Система менеджмента качества – основа конкурентоспособности. Изд. «Асп-Матбуот». 2004.
3. Ахмедов Б.М., Исматуллаев П.Р., Туробжонов С.М., Юсупов Э.Д., Тураев Ш.А. Основы системы менеджмента качества. Изд-во ИПТД «Узбекистан», - Ташкент, 2009.
4. <https://lex.uz>
5. [www.standart.uz](http://www.standart.uz)

